

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-iyuldagi PQ-200-son qarori 9- bandiga asosan xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko'lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarning o'z vaqtida samarali o'tkazilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "2025-yilda xalqaro va respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejalarini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i bo'yicha 2025-yil 22-may kuni Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Biokimyo institutida bo'lib o'tgan **"O'simliklarni himoya qilishning innovatsion biotexnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari"** mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman

HISOBOTI

1. **Anjuman mavzusi:** "O'simliklarni himoya qilishning innovatsion biotexnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari"

2. **Anjuman maqomi:** Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

3. **Ilmiy va ilmiy-texnik anjumanni o'tkazish uchun asos bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni, qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari, farmoyishlari yoki boshqa manbalar:** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-son "Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrdagi 490-son buyrug'i asos qilib olindi.

4. **Anjumanning ilmiy yo'nalishi, maqsad va vazifalari:** Anjumanning ilmiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

1-sho'ba. O'simliklarni himoya qilish nazariyasi va amaliyoti.

2-sho'ba. O'simliklarni biotik omillardan himoya qilish muammolari va yechimlari.

3-sho'ba. Abiotik stress omillari ta'siridagi sharoitda o'simliklarni yetishtirish muammolari va yechimlari.

Maqsadi: o'simliklarni biotik va abiotik ekologik omillardan himoya qilishning nazariy va amaliy muammolarini an'anaviy va noan'anaviy usullardan foydalanish, pestitsidlardan foydalanish darajasini pasaytirish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion biotexnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari, iqtisodiy zarar ko'lami, shuningdek, tegishli soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va tajriba almashish masalalarini muhokama qilishdan iborat.

Vazifalari: O'simliklarni himoya qilish sohasidagi zamonaviy ilmiy yutuqlarni tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini aniqlash.

5. Muhokama qilinadigan muammolar. Zamonaviy ilmiy yutuqlarni tahlil qilish va ularni amaliyotga tatbiq etish yo'llarini aniqlash; Pestitsidlardan foydalanishni kamaytirish va ularning o'rnini bosuvchi tabiiy va biologik vositalarni ishlab chiqish; O'simliklarni himoya qilish bo'yicha mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish va ularning malakasini muntazam ravishda yangilab borish; Zararkunandalar, kasalliklar va begona o'tlar kabi biotik omillar bilan kurashishning dolzarb muammolari va ularning yechimlari; Biologik kurash usullarini rivojlantirish va ularni amaliyotga joriy etish; Iqlim o'zgarishlari, tuproq sho'rlanishi, qurg'oqchilik kabi abiotik stress omillarining o'simliklarga ta'siri va ularni bartaraf etish usullari; Abiotik stress omillariga chidamli o'simlik navlarini yaratish va ularni amaliyotga joriy etish; Abiotik stress sharoitida o'simliklarni yetishtirishda agrotexnik tadbirlarning samaradorligini oshirish.

6. O'tkaziladigan anjumaning Davlat ilmiy-texnik dasturlari, xalqaro ilmiy hamkorlik dasturlari bilan bog'liqligi: Anjuman respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha davlat ilmiy-texnik dasturlarini amalga oshirish, ilm-fan yo'nalishida xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish va yosh olimlarni sohaga jalb qilish hamda ularni sohaning yetuk mutaxassislari bilan aloqalarini yanada mustahkamlash borasida ahamiyatga egadir.

7. Anjuman natijalaridan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik.

Innovatsion tadqiqotlar va ilmiy hamkorlik: Anjumanda o'simliklarni himoya qilish sohasida olib borilayotgan zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalari taqdim etildi. Bu tadqiqotlar, jumladan, biologik himoya vositalari, entomofaglar, mikrobiologik preparatlar va kimyoviy vositalarning samaradorligi bo'yicha yangi ma'lumotlar bilan boyitildi.

Ilmiy nashrlar va patentlar: Anjuman doirasida taqdim etilgan maqolalar elektron shaklda chop etilib, Samarqand davlat universiteti veb-saytiga joylashtiriladi. Shuningdek, tahrir hay'atining ijobiy taqrizini olgan 10 ta ilmiy materiallar "Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar" jurnalida chop etiladi.

Mutaxassislar tayyorlash va malaka oshirish: Anjuman orqali oliy o'quv yurtlari talabalari, magistrantlar, doktorantlar va amaliyotchi mutaxassislar o'rtasida tajriba almashish imkoniyati yaratildi. Bu esa o'simliklarni himoya qilish sohasida malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash: Biologik va ekologik toza usullarni qo'llash orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan o'simliklarni himoya qilish imkoniyati yaratildi. Bu esa aholining sog'lig'ini saqlash va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi. **Iqtisodiy samaradorlik hosildorlikni oshirish:** Biologik usullarni qo'llash orqali g'o'za tunlamiga qarshi kurashishda har bir gektar maydondan 3,3–5,0 sentnergacha hosildorlik saqlab qolinib, iqtisodiy samaradorlik 193,0 mln so'mni tashkil etdi.

Pestitsidlar sarfini kamaytirish: Biologik vositalarni qo'llash orqali pestitsidlar sarfi kamaytirilib, ishlab chiqarish xarajatlari qisqartirildi. Mahalliy biopreparatlar ishlab chiqarish: Mahalliy o'simlik ekstraktleri asosida ekologik toza, samarali bioinsektitsidlar va biogerbisidlar yaratish orqali import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

8. Anjumanda yosh olimlar, mutaxassislar, doktorantlar, tayanch doktorantlar va magistrantlarning ishtirok etishi: Anjumanda biologiya, biotexnologiya, agrokimyo va tuproqshunoslik fan sohalarida faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar, yosh olimlar, doktorantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, umumiy o'rta va o'rta-maxsus, professional ta'lim muassasalari o'qituvchilari, magistrantlar va iqtidorli talabalar olib borayotgan tadqiqotlarining natijalari, amaliyotga tadbiq etilayotgan ishlanmalari, ilg'or innovatsion g'oyalarini o'zida ifoda etgan ma'ruza, maqola va tezislari bilan ishtirok etishdi (ularning umumiy soni 232 ta).

9. Anjumanni o'tkazishda respublikada mavjud soha tashkilotlarining ishtiroki: Anjuman ishida respublikamizda faoliyat yuritayotgan qator soha korxona va tashkilotlarining ishtiroki ta'minlandi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti, Tojikiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi Sug'd viloyati Qishloq xo'jaligi instituti, Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti, "SAG-AGRO Bog'bon" laboratoriyasi hamda soha oliy o'quv yurtlaridan soha mutaxassislari ishtirok etishdi.

2025-yil 22-may soat 10:00 da konferensiyaning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Ilmiy-texnik anjumanning yalpi majlis kirish so'zida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti rektori, texnika fanlari doktori, professor, Oliy Majlis Senati a'zosi Xalmuradov Rustam Ibragimovich, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti direktori, Kasimov Z.I. nutq so'zladi.

Konferensiyaning yalpi majlisida jami 6 ta o'simliklarni biotik va abiotik ekologik omillardan himoya qilishning nazariy va amaliy muammolarini an'anaviy va noan'anaviy usullardan foydalanish, pestitsidlardan foydalanish darajasini pasaytirish va ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, innovatsion biotexnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari mavzulariga bag'ishlangan ma'ruzalar tinglandi. Shular jumlasidan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti professori, b.f.d., professori **Ismailov Z.F.**, O'zbekiston Respublikasi FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti laboratoriya mudiri, b.f.d., professor **Kushanov F.N.**, Qishloq xo'jalik vazirligi huzuridagi O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy tadqiqot instituti, Samarqand mintaqaviy filiali direktori, b.f.n., dotsent **Fayzullayev B.**, O'zR FA Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti, b.f.d., professor **Sherimbetov A.G.** o'zlarining ma'ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjumanning ikkinchi qismi kunning ikkinchi yarmida o'simliklarni himoya qilish nazariyasi va amaliyoti; o'simliklarni biotik omillardan himoya qilish

muammolari va yechimlari; abiotik stress omillari ta'siridagi sharoitda o'simliklarni yetishtirish muammolari va yechimlari kabi sho'balarda davom etdi.

Innovatsion biotexnologiyalarni rivojlantirish: o'simliklarni himoya qilish sohasida innovatsion biotexnologiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish; ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish orqali ilmiy ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish borasida kelishuvlar amalga oshirildi.

Biologik himoya vositalarini ishlab chiqish va joriy etish, mahalliy o'simlik ekstraktlari asosida ekologik toza, samarali bioinsektisidlar va biogerbisidlar yaratish va ularni ishlab chiqarishga yo'naltirish; pestitsidlar o'rnini bosuvchi tabiiy va biologik vositalarni ishlab chiqish va qo'llash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish va bu borada innovatsion texnologiyalarni joriy etish; biologik va ekologik toza usullarni qo'llash orqali atrof-muhitga zarar yetkazmasdan o'simliklarni himoya qilish usullari muhokama qilindi.

Prorektor



A.R.Axatov

A handwritten signature in blue ink, likely belonging to the official mentioned in the text.

“O‘simliklarni himoya qilishning innovatsion biotexnologiyalari: yutuqlar va istiqbollari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjumandan fotolavhalari



